

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING MILLIY IMIDJINI SHAKLLANTIRISH VA BOSHQARISH

Valiyeva Hamida Rovshan Qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va
mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotining milliy imidjini shakllantirish va boshqarish strategiyalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkiloti, milliy imidj, imidjni boshqarish, pedagogik salohiyat, metodik mahorat, raqobatbardoshlik, ta'lim sifati, innovatsion yondashuv, milliy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat, korporativ madaniyat, infratuzilma, jamoatchilik bilan aloqalar, ochiqlik va shaffoflik.

Abstract: This article discusses the strategies for shaping and managing the national image of preschool education institutions.

Keywords: preschool education institution, national image, image management, pedagogical potential, methodological competence, competitiveness, quality of education, innovative approach, national values, social responsibility, corporate culture, infrastructure, public relations, openness and transparency.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limning ijtimoiy maqomini oshirish, ta'lim sohasidagi rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan biridir desak, davlat ta'lim standartiga muvofiq, ta'lim muhitini yaratish maktabgacha ta'limning ochiqligini ta'minlashga yordam berishi zarur. Bunday sharoitda, maktabgacha ta'lim tashkilotining ijobiy imidjini yaratishda uning raqobatbardoshligini oshirish muhim omillardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda jamiyatimizda maktabgacha ta'lim tashkilotining milliy imidjini boshqarishning o'ziga xos uslublar va strategik yondashuvlari mavjud bo'lib, ulardan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining raqobatbardoshligini oshirishda va ijobiy qiyofasini shakllantirishda misol qilib ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmoniga muvofiq, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini "Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti" baholash mezonini asosida baholash va ularning reytingini shakllantirish hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari salohiyatini oshirish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati"ni tashkil etish kabi vazifalar belgilandi.

Mazkur vazifalarni ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilar ekanmiz, bir nechta muhim nuqtalar va strategik yondashuvlarga bosqichma-bosqich to'xtalamiz:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining milliy imidjini boshqarish uslublari nuqtayi nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, mazkur Farmonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining milliy imidjini boshqarishning o'ziga xos uslublari va strategiyalari mavjud. Bu, jamiyatda o'z o'rnini mustahkamlash va ijobiy qiyofa yaratish uchun muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon ta'lim tashkilotlarining raqobatbardoshligini oshirishda va umumiy ijobiy obro'ni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmoni maktabgacha ta'lim tashkilotlarining sifatini oshirishga qaratilgan konkret chora-tadbirlarni

belgilaydi"[1]. Ushbu farmon, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini baholash va reytingini shakllantirishga oid vazifalarni o'z ichiga oladi hamda, zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti baholash mezoniga ko'ra tashkilotlarni baholash jarayoni, ularning sifatini doimiy ravishda oshirishga yordam beradi. Bu metodologiya tashkilotlar o'rtasida raqobatni kuchaytiradi va yaxshilanishga rag'batlantiradi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog kadrlarining salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar alohida ta'kidlanadi. Bu, kadrlarning metodik va pedagogik mahoratini oshirish, ta'lim sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

“Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” kabi tadbirlar, pedagoglarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, yangi pedagogik yondoshuvlar va metodikalarga oid bilimlarini yangilashga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, maktabgacha ta'lim tashkilotining sifatini oshirish va ularning raqobatbardoshligini kuchaytirish uchun zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak mazkur Farmon maktabgacha ta'lim tashkilotlarining sifatini oshirish va milliy imidjni kuchaytirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining milliy imidjini boshqarish va pedagogik salohiyatini oshirish orqali ular jamiyatda ijobiy obro'ga ega bo'ladi, ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilaydi va raqobatbardoshligini oshiradi. Bu esa, ta'lim sohasida zamonaviy talablarga javob beruvchi, yuqori sifatli va samarali tizimni yaratishga xizmat qiladi.

Teshaboyev I.A. “Ta'lim tizimida imidj fenomenini tadqiq etilishiga bag'ishlangan tadqiqotida, korporativ imij va brend menejmentining biznes va marketing sohasidagi muhimligini ta'kidlaydi”[2]. Uning fikricha, “korporativ imidj iste'molchilarning qaror qabul qilish jarayonida ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida qaraladi. Bu imidj, iste'molchilarning tuyg'ulari, qadriyatlari va ijtimoiy guruhlariga mansubligi bilan bevosita bog'liqdir. Ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan, brend yoki mahsulotni qabul qilish, iste'molchilarning emotsional munosabati va xarid qilish qarorlariga qanday ta'sir qilishini psixologlar va marketologlar o'rganadilar”.

Shuningdek, globalizatsiya jarayonining kuchayishi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining global imidjini yaratish va saqlash zaruratini oshirmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari, o'z faoliyatini ijtimoiy va madaniy jihatdan moslashtirgan holda, o'z imidjini global kontekstda yaratish va rivojlantirish maqsadida jamoatchilik oldida ishonchni mustahkamlashga intilishadi. Shu bilan birga, ijtimoiy mas'uliyatni o'z ichiga olgan ta'lim dasturlari va faoliyatlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ijtimoiy imidjini yaxshilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy mas'uliyatli imidj, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining jamiyatdagi ishonchni mustahkamlashga va ota-onalar, bolalar hamda keng jamoatchilik tomonidan ijtimoiy qabul qilinishini yaxshilashga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida PR-menejeri bo'lmasa-da, ta'lim tashkiloti imidjini yaratish va saqlash jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotining obro'sini oshirish va uning jamoatchilikdagi munosabatini yaxshilashga qaratilgan bir qancha vazifalar mavjud. Shu nuqtayi nazardan maktabgacha ta'lim tashkilotining direktori ham bu jarayonlarda muhim rol o'ynaydi. Direktor, tashkilotning imidjini shakllantirish va saqlash jarayonini boshqaradi, ta'lim tashkilotining umumiy rivojlanishini strategik rejalashtiradi va amalga oshiradi. Shuningdek, direktor ta'lim tizimidagi yangi metodikalar va yondashuvlarni joriy etishda, pedagogik jarayonlarning sifatini ta'minlashda, hamda tashkilotning ijtimoiy tarmoqlarda va ommaviy axborot vositalarida ko'rinishini yaxshilashda faol ishtirok etadi. Direktorga, shuningdek, jamoaning har bir a'zosini qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik bilan aloqalarni mustahkamlash vazifalari ham yuklatiladi.


Maktabgacha ta'lim tashkilotining imidji nafaqat tashqi omillar, balki ichki jarayonlar va xodimlarning ishtiroki orqali ham shakllanadi. Shuning uchun milliy imidjini saqlash va rivojlantirish uchun barcha mavjud resurslardan samarali foydalanishi zarur. Maktabgacha ta'lim tashkilotining muvaffaqiyatli va obro'li bo'lishi, aynan shu tizimning ichki va tashqi omillarini muvozanatli ravishda boshqarish orqali ta'minlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining milliy imidjiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar haqida zamonaviy olimlarning fikr-mulohazalari turli jihatlarni qamrab oladi. Hududning infratuzilmasi, ekologik muhit va transportga qulaylik ota-onalarning ta'lim tashkilotiga bo'lgan ishonchini oshiruvchi asosiy omillardan biridir. Masalan, Ryan K.E. ta'kidlaganidek, "hududning qulayligi va infratuzilma sifatining yuqori darajada tashkil etilishi ota-onalar tanloviga sezilarli ta'sir qiladi"[3]. Shu bilan birga, Martin L. Lubyning fikricha, "mahalliy hamjamiyat bilan yaqin aloqalar va qo'llab-quvvatlash tashkilot imidjini kuchaytiradi"[4].

Pedagoglarning yuqori malakasi va ularning o'zini rivojlantirishga intilishi ta'lim sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanib, Linda Darling-Hammond bu jarayonda "pedagoglarning innovatsion yondashuvlar va metodlarni qo'llashi tashkilot obro'sini oshirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi"[5]. John Hattie esa, ta'lim muvaffaqiyati bevosita pedagoglarning kasbiy mahorati va ishga bo'lgan mas'uliyatidan kelib chiqishini qayd etadi"[6].

Ta'lim dasturlarining xilma-xilligi va ularning sifati milliy va xalqaro miqyosda ta'lim tashkilotining reytingiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Pasi Sahlberg "zamonaviy o'quv dasturlari va innovatsion xizmatlar tashkilotning ijobiy imidjini shakllantirish uchun muhim ekanligini ta'kidlaydi"[7]. Shuningdek, Andreas Schleicher "ta'lim sifati global muvaffaqiyat kaliti ekanligini va bu jihat ta'lim muassasalariga ishonchni oshirishini aytadi".

Mazkur tadqiqot ishimizda olimlarning fikrlari va nazariy tahliliga tayanib, maktabgacha ta'lim tashkilotining milliy imidjiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan bir qancha omillarni aniqladik.



Maktabgacha ta'lim tashkilotining milliy imidjiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Mazkur tadqiqot ishimizda o'tkazilgan tahlillar va olimlarning nazariy qarashlariga asoslanib, maktabgacha ta'lim tashkilotining milliy imidjiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi asosiy omillar aniqlashtirildi:

hududning qulay joylashuvi va infratuzilma rivoji;
pedagog-tarbiyachilarning yuqori professional darajasi;
ta'lim xizmatlarining sifat va xilma-xilligi;
milliy qadriyatlar va an'anaviy tarbiya elementlari;
zamonaviy moddiy-texnik baza va o'quv resurslari;
jamoatchilik bilan samarali aloqalar tizimi;
ochiqlik va shaffof boshqaruv muhiti.

Ushbu omillar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, kompleks tarzda rivojlantirilgani taqdirdagina maktabgacha ta'lim tashkilotining barqaror va ijobiy milliy imidji shakllanadi.

Bizning tadqiqotimizda pedagog-tarbiyachilarning professionalligi maktabgacha ta'lim tashkilotining sifati va uning milliy imidjini shakllantirishda yetakchi omillardan biri ekanligi ta'kidlandi. Pedagoglarning kasbiy malakasi, bilim va ko'nikmalari, professional sertifikatlari hamda amaliy tajribasi, shuningdek, ularning shaxsiy-axloqiy fazilatlarini va didaktik yondashuvlari ta'lim jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Jumladan, pedagoglarning yuqori malakasi ta'lim jarayonida ijobiy natijalarga erishishning asosiy sharti hisoblanadi. Bu jarayonda o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bilishi va ulardan samarali foydalanishi, innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq eta olishi hamda bolalar bilan samarali muloqot o'rnatish ko'nikmasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, jamoa ichida sog'lom psixologik muhitni shakllantirish, o'zaro hamkorlik va pedagogik birdamlikni ta'minlash ham muassasaning ichki imidjini kuchaytiradi. Bu esa tashqi ijobiy qiyofaning shakllanishiga zamin yaratadi.

Demak, pedagog-tarbiyachilarning professionalligi nafaqat ta'lim sifatining kafolati, balki maktabgacha ta'lim tashkilotining milliy imidjini mustahkamlovchi, jamiyatdagi ijtimoiy maqomini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmoni.
2. Teshaboyev I.A. Ta'lim tizimida imij fenomenining ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq etilishi // *Inter education & global study*. 2024. №7. B. 510-522.
3. Ryan, K. E. (2018). Improving Educational Outcomes: Place-Based Approaches to Educational Equity. *Journal of Urban Education*.
4. Luby, M. L. (2021). The Role of Community Proximity in Strengthening Educational Trust
5. Valiyeva F.R., Sharipova G.N. Innovative technologies in improving the management of preschool educational organizations//*International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE)* DOI:10.9756/INTJECSE/V14I5.94 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 05 2022
6. Abdullayeva N.Sh. Leader competency and its specific characteristics in managing the school education system// *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research* eISSN:2771-2141Pages:152-158|Crossref DOI:<https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume04Issue02-23> Published Date: 2024-02-29<http://theusajournals.com/index.php/ajsshr/article/view/2548>
7. Abdullayeva N.Sh. Improving the preschool education system on the basis of cluster technologies// *Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation*, B. 36872-36886 2021 y